

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TILLASHAYKOVA XOSIYAT AZAMATOVNA**

**TALABA-YOSHLAR PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA IJTIMOY  
YETUKLIGI SHAKLLANISH DINAMIKASINING XUSUSIYATLARI**  
(pedagogika oliygohlari misolida)

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)  
по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on psychological  
sciences**

**Tillashayxova Xosiyat Azamatovna**

Talaba-yoshlar ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi va psixologik farovonligi xususiyatlari..... 3

**Тиллашайхова Хосият Азаматовна**

Динамика становления социальной зрелости и особенности психологического благополучия студенческой молодежи (на примере педагогического вуза)..... 29

**Tillashayxova Xosiyat Azamatovna**

Dynamics of development of social maturity and features of psychological well-being of students (in example of a pedagogical university) ..... 59

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 64

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TILLASHAYXOVA XOSIYAT AZAMATOVNA**

**TALABA-YOSHLAR PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA IJTIMOY  
YETUKLIGI SHAKLLANISH DINAMIKASINING XUSUSIYATLARI  
PSIXOLOGIK FAROVONLIGI XUSUSIYATLARI  
(pedagogika oliygohlari misolida)**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3DSc/P130 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-ik@.uz ) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Rasmiy opponentlar:**

Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich  
falsafa fanlari doktori, professor

Shoumarov Gayrat Baxramovich  
psixologiya fanlari doktori, akademik

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; Web-site: www.tdpu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
psixol.f.d. (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
psixol.f.d. (DSc), professor

**Z.T.Nishanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, psixol.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tizimida ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligini shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Psixologik yetuklik mamlakat taqdiriga befarq emaslik, faol fuqarolik pozitsiyasi va o‘z kasbiy vazifalarini hal qilishda mas’uliyatlilikni shakllantirishni nazarda tutadigan ijtimoiy etuklik bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, YUNESKOning Bosh konferensiyasi 41-sessiyasida ta’kidlanganidek<sup>1</sup>, yoshlarning ta’lim makonida yangi axborotlar oqimi sharoitida savodxonligi, shuningdek, ijtimoiy yetukligi muammolari dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida talaba-yoshlar ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi va psixologik farovonligi xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada shaxsning ijtimoiy yetukligi – oila, maktab, OTM, ijtimoiy muhit, umuman, sotsium tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya jarayonining asosiy yutuqlaridan birini tavsiflovchi tushuncha ekanligi nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikni ta’minlaydigan sifatlarni egallagan, ilmiy salohiyat, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, nafaqat mavjud faoliyat algoritmlarini qayta yaratish, balki natijaviy qarorlar qabul qilishga qodir yoshlarni tarbiyalash muammosi dolzarb hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarning psixologik yetukligi, psixologik farovonligini shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu borada zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «...yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish»<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida qaralib, bu holat mazkur tadqiqotda masalaga oid vazifalarni belgilash va chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, o‘zaro birdamlikka asoslangan o‘zaro hamkorlik, talaba-yoshlarning empatik munosabatlari shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanish dinamikasi va qadriyatli-yoshga oid mazmunini ilmiy asosda yoritish, ilmiy tadqiq etishni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari

<sup>1</sup> The General Conference of the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), meeting in Paris from 9 to 24 November 2021, at its 41st session. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380399>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3907-son. 2018-yil 14-avgust. <https://lex.uz/docs/3864155>.

to'g'risida", 2021-yil 18-yanvardagi PQ-23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyuldagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Talabalarning psixologik barqarorligi, farovonligini ta'minlash hamda akademik va ilmiy faollik jarayonida ijtimoiy yetukligini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarga doir ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlari, jumladan, Tadqiqotlar markazi (Buyuk Britaniya); Britaniya psixologiya jamiyati (Buyuk Britaniya); Amerika psixologiya assotsiatsiyasi (AQSH); Psixologiya muammolarini o'rganish davlat instituti (Germaniya); Sorbonna universiteti (Fransiya); Milliy ta'lim universiteti (Koreya); Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti va Rossiya Ta'lim akademiyasi Psixologiya instituti ilmiy-tadqiqot institutlari, Moskva Davlat universitetida (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda shaxsning ijtimoiy yetukligini shakllantirish va rivojlantirishning turli jihatlarini (kasbiy, shaxsiy, kommunikativ yetuklik va sh.k.) o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda jumladan quyidagi natijalar olingan: talaba-yoshlarning ijtimoiy etukligi rivojlanishini belgilaydigan omillar o'rganilgan (RTA PI, Rossiya); psixologik farovonlikni shakllantirish mexanizmlari aniqlangan (Amerika psixologiya assotsiatsiyasi (AQSH) va Sorbonna universiteti (Fransiya); psixodiagnostik metodlar yordamida talabalarning psixologik farovonligini aniqlashning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan (Melburn universiteti, Avstraliya, Berlin-Germaniya); ijtimoiy etuklik va psixologik farovonlikning turli tuzilmaviy komponentlarini aniqlash va o'rganish imkonini beradigan psixodiagnostik vositalar aprobatsiyalangan (MDU, RTA Psixologiya instituti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda psixologiya, psixologik ong shakllanishining mexanizmlarini o'rganishda hozirgi kunda dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari quyidagi mavzular bilan bog'liq: shaxsning ijtimoiy yetukligini shakllantirish va rivojlantirish; psixologik ta'lim-tarbiyaning shakllanishi orqali psixologik himoyani shakllantirish; inson va jamiyat o'rtasida axloqiy-psixologik munosabatlarni shakllantirish; axloqiy ong shakllanishini tekshirish uchun qo'llanuvchi diagnostik vositalar, shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi o'zaro

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi URL:<https://www.yale.edu>, URL:<https://www.harvard.edu>, URL:<https://www.stanford.edu>, URL:<https://www.uni-Билефельд.de>, URL:<https://www.unimelb.edu.au>, URL:<https://www.nus.edu.SG>, URL:<https://www.snu.ac.kr>, URL:<https://www.mgppu.ru> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

aloqadorlik; shaxsda himoya mexanizmini aniqlash orqali rivojlanishiga erishish, kasbiy kompetentlikni ta'minlaydigan sifatlarni egallagan, ilmiy salohiyat, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, nafaqat mavjud faoliyat algoritmlarini qayta yaratish, balki natijaviy qarorlar qabul qilishga qodir yoshlarni tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonlik psixolog-olimlar B.S.Abdullayeva, F.A.Akramova, R.A.Abdurasulov, N.B.Atabayeva, Sh.R.Baratov, A.S.Begmatov, E.G.Gaziyev, M.G.Davletshin, P.S.Ergashev, S.X.Jalilova, G.N.Ibragimova, U.D.Kodirov, V.M.Karimova, B.R.Kadirov, Z.T.Nishanova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, G.B.Shoumarov, va boshqalar<sup>4</sup> tomonidan o'smirlik davrida tiklanish va rivojlanishning turli qirralari, jumladan, shaxsiy rivojlanish, professionalizm shakllanishi, ijtimoiy rollarning tiklanishi, shaxsning ijtimoiy yetukligini belgilaydigan psixologik determinantalar, shuningdek, o'smirlik davrida muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv omili sifatida milliy o'zlikni anglash masalalari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, Ye.V.Alekseyeva, V.V.Bashev, S.V.Bikov, O.Yu.Grogoleva, Dj.Gudvin, L.I.Dementiy, A.A.Derkach, U.D.Djeys, E.F.Zeyer, G.E.Yonas, Yu.V.Klyuyeva, V.E.Kupchenko, N.V.Leyfrid, M.V.Mukonina,

---

<sup>4</sup> Abdullaeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. –T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.; Akramova F.A. «Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish dolzarb muammo sifatida». Zamonaviy ta'lim jurnali. 2021. 11-son. – B.65-70.; . P.A.Abdurasulov Роль ценностей в формировании мотивации. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки, т. 22, № 74, 2020 Izvestiya of the Samara Science Centre of the Russian Academy of Sciences. Social, Humanities, Biomedical Sciences, Vol. 22, no. 74, 2020. H.B.Atabayeva Psychological features of the formation of altruism motives in the family. [https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajir/issue/view/408.](https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajir/issue/view/408), Baratov Sh.R. Социально-психологические и научно-практические основы создание психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс. докт. психол.наук. – Т.,1998. – 37 с., Begmatov A.S. Халқимиз тарихининг очилмаган саҳифалари. Научный журнал. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7, Ergashev P.S. Simmetriya hissi fenomenologik tahlili, diagnostikasi va korreksiyasi: psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.01. –T., O'zMU 2018.46 b.; S.X.Jalilova Психологические критерии нравственного формирования и развития личности. № 5 (2022): Образование и инновационные исследования. У.Д.Қодиров Ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Автореф. дис. д-ра психологических наук. – Т., 2020, Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. Т., O'zbekiston. - 30 bet.; Шоумаров Г.Б., Кадыров У.Д. Психологические аспекты защиты молодёжи от влияния деструктивных идей. № 4, 2020 “Психология” научный журнал. Газиев Э. Илмий ижод ва олимнинг шахси // Таълим муаммолари. 2014. 2 – сон. –Б. 69 – 73., Каримова В.М. Ижтимоий психология. Дарслик. Тошкент давлат иқтисодий университеті. - Тошкен- 2012. В-298. Kadirov V.R. Склонности и их индивидуально-природные предпосылки на материале подросткового возраста: автореферат дис. ... докт. психол. наук: 19.00.01 - М., 1989. 46 с; Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. дис...д. психол. наук. – Т.: НУУз, 2005. – 38 с., Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. - Т.: Sharq, 2000.; Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - Т., 2005. - 391 b.; Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: psixol.f.n. disser avtoreferati: 13.00.01. –T., TDPU 2017.39 b., Шоумаров Г.Б., Кадыров У.Д. Психологические аспекты защиты молодёжи от влияния деструктивных идей. № 4, 2020 “Психология” научный журнал. Б.Р.Кадиров Спосібности и склонности: психофизиологическое исследование. Ташкент: «Фан», 1990.-105с. Халилова Н.И. Развитие рефлексивности в обеспечении психологического роста личности. Автореф. дисс... доктора наук (DSc) по психологическим наукам. – Ташкент – 2022. – 75 с.; Жўраева С.Н. Замонавий педагог имижі шаклланишининг ижтимоий-психологик омиллари. Автореф...дис... д-ра психологических наук. – Т., 2022.: Д.С.Каршиева Роль и значение стрессорных и стрессогенных факторов в профессиональном развитии педагогов. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/>. Назаров А.М. Педагогико-психологическая устойчивость развития научно-инновационной деятельности студентов. Автореф. дисс... доктора наук (DSc) по психологическим наукам. – Ташкент – 2023. – 75 с..

A.G.Perlin, N.N.Satonina, V.G.Saxarova, N.N.Semenenko, N.D.Tabunov, O.N.Shaldibina va boshqalar<sup>5</sup> tomonidan talabalarining mustaqilligi, o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish masalalari tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlar R.Mc.Crae, P.Costa tomonidan kasbiy mahorat masalalariga oid tadqiqotlar olib borilgan. N.Branden, T.M.Brinthaupt, L.J.Erwin; A.Brook, R.C. De Vidi ishlarida psixologik-ijtimoiy yetuklikning hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy aloqalarning tiklanish xarakterini belgilaydigan shaxslararo jozibadorlikka ta’siri o‘rganilgan<sup>6</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti OT-F1-126 – “O‘zbekiston yoshlarining psixologik yetuklik ko‘rsatkichlarini tadqiq qilishning psixologik vositalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslar va amalga oshirish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021-y.y).

**Tadqiqotning maqsadi** pedagogika OTM turli bosqichlarida ta’lim olayotgan talabalarining ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi hamda psixologik farovonligi xususiyatlarini aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o‘spirinlik yoshidagi talabalarining ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligining tuzilmaviy-mazmunli tavsiflarini aniqlash;

talabalarining ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligi ko‘rsatkichlarining ifodalanganligini OTMda ta’lim olishning boshlang‘ich bosqichi va uni tugatish ta’lim bosqichiga bog‘liqligini aniqlash;

psixologik farovonlik ko‘rsatkichlarining yoshga oid xususiyatlarini OTM pedagogik mutaxassislik bitiruvchisiga qo‘yiladigan ijtimoiy va kasbiy talablarga nisbatan aniqlash;

ijtimoiy-psixologik yetuklik va psixologik farovonlikni pedagogik OTM bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligi ko‘rsatkichi sifatida shakllantirishning muhimligini isbotlash;

talabalarining psixologik farovonligi xususiyatlarini, o‘z navbatida, ta’lim tizimi

---

<sup>5</sup>Алексеев Н. Г. Доклад. — Летняя психологическая школа факультета психологии Московского Государственного Университета имени М. В. Ломоносова (ЛПШ–82, руководитель: И. И. Ильясов). // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 28.06.2011. Давыдов В.В., Слободчиков В.И., Цукерман Г.А. Младший школьник как субъект учебной деятельности // Вопросы психологии. – 1992. – № 3-4. – С. 14-19.; Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. М.: ИП РАН, 2004. Кулюткин Ю.Н. Рефлексивная регуляция мышления // Деятельность и психические процессы: Тез. докл. к V Съезду Общества психологов СССР. М., 1977. С. 72-79. Лефевр В.А. Конфликтующие структуры. М.: Советское радио, 1973. Ротанова Р.А «Взаимосвязь показателей интеллекта и когнитивной дифференцированности в зависимости от специализации обучения студентов» /Р.А.Ротанов// Психология интеллекта и творчество, традиции и инновации: материалы научной конференции, посвященной памяти Я.А.Пономарёва и В.Н.Дружинина/ г.Москва, 7-8 октября 2019 г/ под.ред А.Г.Шеретнева-М.:ИПРАН 2010, с 162-170/ Рубинштейн, С.Л. Основ обще психологии: Учеб. [Текст] /С.Л. Рубинштейн. - СПб.: Питер, 2001. - 720 с. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Организация творческого мышления и саморазвитии личности //Вопросы психологии. 1983. № 2. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. От психологии рефлексии к рефлексивной культуродигме психологии // Рефлексия в науке и обучении. – Новосибирск: ИФП СО РАН, 1989. – С. 144-153.

<sup>6</sup> N. Branden, T.M. Brinthaupt, L.J. Erwin; A. Brook, R.C. De Vidi изучается влияние психосоциальной зрелости на межличностную привлекательность, определяющей характер становления социальных контактов в различных сферах жизнедеятельности (Branden N. The psychology of self-esteem. San Francisco, CA, JosseyBass, 2000.; Brinthaupt T.M., Erwin L.J. The self: definitional and methodological issues: Reporting about the self: issues and implications / Ed. by T.M. Brinthaupt, R.P. Lipka. Albany, N.Y.: State University of New York Press, 1992. P. 137–171; Brook A., DeVidi R.C. Self-reference and self-awareness. Amsterdam; Philadelphia, 2001).

bo'lajak professionaligining faol va mas'uliyatli pozitsiyasini belgilab beradigan shaxsning o'zini o'zi dolzarblash va o'zini o'zi realizatsiyalashiga asoslanib, zarur tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** Talabalarining ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligi dinamikasi. Tadqiqotda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat pedagogika institutidan 456 nafar 1- va 416 nafar 4-kurs talabarlari, jami 872 nafar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti pedagogika OTM turli yo'nalishlarining birinchi va oxirgi kurs talabalarining ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish usullari; shuningdek, K.Riffning «Psixologik farovonlik», K.Zamfirning «Kasbiy faoliyat motivatsiyasi», M.Rokichning «Qadriyatlar yo'nalganligi», Kuka–Medleyning «Dushmanlik shkalasi», Dj.Rotterning «SND (subyektiv nazorat darajasi)», Savikas-Porfelinning «Karera-moslashish qolibiyatlari shkalasi», E.Devisning ko'p omilli empatiya testi, mualliflik «Ijtimoiy yetuklik va psixologik farovonligi ko'rsatkichlarini aniqlash» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Spirmenning noparametrik korrelyatsion tahlil mezoni, Alf-Kronbaxning SPSS dasturida ishonchlilik ko'effitsienti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** boshlang'ich nazariy qoidalarining metodologik asoslangani; respondentlar tanlovi tasodifiy emasligi; nazariy qoidalar ziddiyatli emasligi va empirik ma'lumotlarning ishonchliligi; olingan natijalarning miqdor va sifat jihatidan tahlili biorlashtirilgani; tadqiqotning ichki ziddiyatli emasligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda olingan natijalar va xuldosalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida ishda matematik statistika metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlarning ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligining tuzilmaviy-mazmunli tavsiflari, jumladan: o'zini o'zi qabul qilish va o'zini o'zi hurmat qilish, avtonomlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, nazorat lokusining anglashilgani, internalligi va ijobiy shaxslararo munosabatlar yoritilgan;

talabalar ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligining ko'rsatkichlari ifodalanganligi 1-kursdan 4-kursgacha ijobiy dinamikaga ega ekani, u: 1-kurs talabarlari uchun o'zini o'zi rivojlantirish ustuvor qadriyatlar sirasiga kirmasligi xos ekani. Bitiruvchi talabalarda o'zini o'zi boshqarish, hayoida o'zini o'zi uyushtirish (tashkil qilish) va hayotning turli sohalarida maqsadlarni belgilash parametrlari ifodalanganida namoyon bo'lishi, bu esa OTM da olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining ijobiy ta'siridan dalolat berishi isbotlangan;

talabalar ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligining mezonlari: shaxsiy o'sishga ehtiyoj, o'zini o'zi realizatsiyalashga yo'nalganlik, o'zini o'zi determinatsiyalash, kasbiy faoliyatda avtonomlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, nazorat lokusining anglashilgani, internalligi va ijobiy shaxslararo munosabatlar asoslangan;

OTM da ta'lim olish davri: talabalarining pedagogik kasbni egallashdan manfaatdorligi va kasbiy javobgarlikka tayyorligining oshishi; o'quvchilar bilan pedagogik savodli o'zaro hamkorlikni amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblangan empatiyaning rivojlanishi; terminal va instrumental qadriyatlarning muvofiqligiga

ko'maklashishi isbotlangan, buni umuman olganda, talabalar ijtimoiy-psixologik yetukligi shakllanishida shaxsiy zaxira sifatida baholash mumkin;

o'spirin va qizlarning o'z psixologik farovonligini baholashi shaxsning o'zini his qilishi (kayfiyati) markeri ekani, ammo bu farovonlik sho'sib kelayotgan shaxsning o'zini o'zi dolzarblashtirish va o'zini o'zi realizatsiyalash ehtiyojining shakllanishi va rivojlanishiga qanchalik ko'maklashishi ko'rsatkichi bo'la olmasligi aniqlangan. O'zini farovon deb subyektiv baholash shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishga motivatsiyasi kuchsiz bo'lganida ham o'rin tutishi mumkin.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqot asosida "Talaba-yoshlarning ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi" nomli monografiya tayyorlangan, unda talaba-yoshlarning ijtimoiy yetukligi xususiyatlari bo'yicha asosiy natijalar qayd etilgan;

pedagogika OTM talabalarining ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini aks ettirgan model ishlab chiqilib, model tuzilmasiga pedagogik faoliyatga tayyorlikni shakllantirish, shaxslararo o'zaro hamkorlikning konstruktiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlari mazmuniga singdirilgan;

talabalarning psixologik farovonligi ko'rsatkichlari va ijtimoiy yetukligi tavsiflarini o'rganish asosida "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" moduli bo'yitilgan va o'quv jarayoniga tatbiq qilingan;

tadqiqot natijalaridan OTM psixologik xizmati xodimlari talabalarning shaxsiy va kasbiy o'sish masalalari bo'yicha psixologik maslahat amaliyotida foydalanishlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, aprotatsiya qilingan. (DGU 37743)

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning kasbiy sohada ijtimoiy-psixologik yetukligi shakllanishi va namoyon bo'lishi o'ziga xosliklariga oid ilmiy natijalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan empirik ma'lumotlardan ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi va etnopsixologiya yo'nalishidagi o'quv kurslarining samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar konseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillardan talabalar bilan psixologik va profilaktik ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, "Ijtimoiy psixologiya", "Psixologik xizmat", "Psixologik maslahat va psixokorreksiya" fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning etarlicha reprezentativligi, olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya» va «Shaxs psixologiyasi», «Psixologik xizmat», «Psixologik maslahat va psikorreksiya» fanlarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi mumkinligi, o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalaridan OTMda talabalarning pedagogik kasbni egallashdan manfaatdorligi va kasbiy javobgarlikka tayyorligining oshishi, terminal va instrumental qadriyatlarining muvofiqligi, talabalarda ijobiy xarakteristikalar shakllanishga ko'maklashishi, hamda korreksion ishlarni tashkil etishda yordam berishi foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talaba yoshlar psixologik farovonligi va ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasining xususiyatlari (pedagogika oliygohlari misolida)ni tadqiq etish natijalari asosida:

talaba-yoshlarning ijtimoiy etukligi va psixologik farovonligining tuzilmaviy-mazmunli tavsiflari, jumladan: o'zini o'zi qabul qilish va o'zini o'zi hurmat qilish, avtonomlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, nazorat lokusining anglashilgani, internalligi va ijobiy shaxslararo munosabatlar yoritilganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-258-sonli buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduli mazmuniga singdirilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-258 a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bu xulosalarning o'quv jarayoniga joriy qilinishi tinglovchilarning ilmiy-nazariy psixologik tayyorgarlik darajasi oshishiga xizmat qilgan;

talabalar ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligining ko'rsatkichlari ifodalanganligi 1-kursdan 4-kursgacha ijobiy dinamikaga ega ekani, u: 1-kurs talabalari uchun o'zini o'zi rivojlantirish ustuvor qadriyatlar sirasiga kirmasligi xos ekani, bitiruvchi talabalarda o'zini o'zi boshqarish, hayotida o'zini o'zi uyushtirish (tashkil qilish) va hayotning turli sohalarida maqsadlarni belgilash parametrlari ifodalanganida namoyon bo'lishi, bu esa OTMda olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining ijobiy ta'siridan dalolat berishi isbotlangan ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-258-sonli buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduli mazmuniga singdirilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-258 a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy-metodik ta'minotini boyitishga erishilgan;

talabalar ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligining mezonlari: shaxsiy o'sishga ehtiyoj, o'zini o'zi realizatsiyalashga yo'nalganlik, o'zini o'zi determinatsiyalash, kasbiy faoliyatda avtonomlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik, nazorat lokusining anglashilgani, internalligi va ijobiy shaxslararo munosabatlar asoslangan ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-258-sonli buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduli mazmuniga singdirilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-258 a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak amaliy psixologlarning istiqboldagi faoliyatini

samarali tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

OTMa ta'lim olish davri: talabalarning pedagogik kasbni egallashdan manfaatdorligi va kasbiy javobgarlikka tayyorligining oshishi; o'quvchilar bilan pedagogik savodli o'zaro hamkorlikni amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblangan empatiyaning rivojlanishi; terminal va instrumental qadriyatlarining muvofiqligiga ko'maklashishi isbotlanib, talabalar ijtimoiy-psixologik etukligi shakllanishida shaxsiy zaxira sifatida baholangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-258-sonli buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduli mazmuniga singdirilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-258 a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy shakllanishining psixologik farovonlik bilan bog'liq jihatlari ochib berilgan;

o'spirin va qizlarning o'z psixologik farovonligini baholashi shaxsning o'zini his qilishi (kayfiyati) markeri ekani, ammo bu farovonlik o'sib kelayotgan shaxsning o'zini o'zi dolzarblashtirish va o'zini o'zi realizatsiyalash ehtiyojining shakllanishi va rivojlanishiga qanchalik ko'maklashishi ko'rsatkichi bo'la olmasligi aniqlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-noyabrdagi PM-258-sonli buyrug'i bilan "Ijtimoiy psixologiya" moduli mazmuniga singdirilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-noyabrdagi PM-258 a-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy psixologlarning psixologik xizmatlarda kelguvchi faoliyatiga oid bilim, ko'nikma va malalari darajasi oshishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan, shuningdek, monografiya chop qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, OAK doktorlik dissertatsiyalari (DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, shundan 9 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 301 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; ishning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi yoritilgan. E'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Shaxsning ijtimoiy yetukligi va psixologik farovonligini o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida talaba-yoshlarning ijtimoiy yetukligi va psixologik barqarorligi shakllanish dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotning nazariy-

metodologik asoslarini belgilashda Qadimgi Gretsiya maktabi vakillari Aristotel, Platon va Sokrat asarlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash zarurki, axloqiylik bilish, o'zini bilish va falsafani o'rganish tamoyillariga asoslangan, "haqiqiy", "to'g'ri" bilimlarni amalga oshirish esa ezgulikka olib boradi.

Qadimgi Sharqning qomusiy olimlari fikricha, tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri – insonga, avvalo, uning ko'ngli rohatga emas, balki faqat haq, ongli qalbi, irodasi haqiqatga yo'naladigan qilib, o'z tabiatini o'zgartirishda yordamlashishdan iborat. Tarbiyaning yana bir vazifasi, Forobiyning ta'kidlashicha, insonning ma'naviy me'yorlarni va hunar egallash uchun amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishidir. Ibn Sino bola tarbiyasida ehtiyot bo'lishga chaqirgan va bolaning qalbi "toza taxtaga" o'xshashini, unda istalgan tasvirni chizish mumkinligini aytgan. At Tusiy "Ilm yo'lida tahsil oluvchiga o'gitlar" kitobida tarbiyaning maqsadi ularni shakllantirish hisoblangan o'n to'rta: toqat, bosiqlik, yordam va do'stona munosabat, insoniylik, saxiylik, halimlik, oliyjanoblik, qisqalik va boshq. ma'naviy fazilat tilga olingan. aqliy ta'lim bilan birga shu sifatlarni egallash insonni mukammal qilishi uqtirilgan. O'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharq mutafaakirlari ta'limotlarini umumlashtiruvchi jihat inson ma'naviyatini uning mukammal shaxs sifatida shakllanishida ahamiyatli hamda uning hayoti va faoliyati qanday kechishini belgilaydigan omil sifatida ta'riflangani hisoblanadi.

"Yetuklik" tushunchasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda keng qo'llanadi. Shaxsning ijtimoiy yetukligi – oila, maktab, OTM, ijtimoiy muhit, umuman, sotsium tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy yutuqlaridan birini tavsiflovchi tushuncha. Yetuk shaxs – o'z muhitini mukammal egallagan shaxsiy sifat va qadriyatli yo'nalganliklarning barqaror birligiga ega hamda insonlar va o'zini to'g'ri qabul qila oladigan shaxs.

Shaxsning psixologik yetukligi fenomeniga zamonaviy psixologik adabiyotlarda katta e'tibor qaratiladi. Uning mazmunini aniqlash, shaxsiy yetuklikning integral tavsifi sifatida namoyon bo'ladigan shaxsiy salohiyat (potensial) bilan nisbatda qarab chiqishga urinishlar mavjud. Ijtimoiy yetuklik muammosining turli jihatlari ilmiy tadqiqotlarda ochib berilyapti. Xususan, B.G.Ananyev, A.A.Derkach, A.M.Zimichev, N.N.Kuzmina, V.N.Maksimova, G.S.Mixaylov ijtimoiy etuklikni tavsiflaydigan shaxsiy sifatlarni aniqlagan. Tadqiqotlarda aytilishicha, yetuklik turlari shaxsiy, jumladan, ijtimoiy-psixologik yetuklik bilan aloqadorlikda muhokama qilinadi.

Rossiyalik olimlar tomonidan yetuklik turlari quyidagicha ajratiladi: umumiy (A.G.Portnova, V.M.Rusalov), ijtimoiy (V.A.Averin, G.G.Aleksandrova, Ye.V.Andrienko, I.S.Kon, P.M. Yakobson), psixik-ijtimoiy (A.L.Juravlev), ijtimoiy-psixologik (A.L.Juravlyev, L.V.Mixaylova, G.S.Suxobskaya), psixologik (F.S.Brantova, L.A.Kolmogorova), shaxsiy (V.A.Ananyev, A.G.Smolov, L.I.Bojovich).

M.G.Davletshin, e.G.Gaziyev, G'.B.Shoumarov, B.R.Kadirov, V.M.Karimova, V.A.Tokareva, A.A.Fayzullayev, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratov, Z.T.Nishanova, F.A.Akramova kabi Vatanimiz olimlari o'spirinlik yoshida shakllanish va rivojlanishning turli qirralari, jumladan, shaxsiy rivojlanish, professionalizmning shakllanishi, oilada ijtimoiy rollarni shakllanishi, shuningdek, shaxsning psixologik yetukligi shakllanishini belgilaydigan psixologik determinantalarni, o'spirinlik davrida

muvaffaqiyatli ijtimoiylashish omili sifatida milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishini o'rgangan.

Zamonaviy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, o'spirinlik davri insonning mustaqil va katta hayotining boshlanish davri hisoblanadi. 18-25 yoshda dastlabki ijtimoiylashish nihoyasiga etadi va nafaqat hayotning kasbiy sohasi rivojlana boshlaydi, balki yoshlar ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va jamiyatda o'zaro hamkorlik jarayonida ijtimoiy rollarni faol o'zlashtiradi.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, tadqiqotda ijtimoiy-psixologik yetuklikning umumlashma ta'rifidan foydalanildi, unga ko'ra, ijtimoiy-psixologik yetuklik shaxsning hayotiy faoliyatning barcha sohalarida xulq-atvorning yaxlitligi, ijtimoiy yo'nalganligi bilan tavsiflanadigan barqaror holati sifatida baholanadi.

Psixologik farovonlik insonning ijobiy faoliyatning asosiy komponentlari, jumladan, shaxsiy o'sish, o'zini o'zi qabul qilish, avtonomiya, hayotiy maqsadlar, atrofdagilar bilan ijobiy munosabatlarni amalga oshirishga yo'nalganlik, shuningdek, o'zidan va o'z hayotidan qoniqishda sub'ektiv ifodasini topgan mazkur yo'nalganlikning amalga oshirilganlik darajasining integral ko'rsatkichi sifatida ta'riflanadi.

Tadqiqotda talabalarining ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligini o'rganishga yondashuvda yuqorida keltirilgan metodologik pozitsiyalarga asoslanildi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik OTM talabalarining kasbiy shakllanish dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi pedagogika OTM birinchi va bitiruvchi kurs talabalarining kasbiy shakllanishida motivatsiyali-qadriyatli sohaning xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari tahliliga bag'ishlangan. Talabalar motivatsion sohasida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar dinamikasini o'rganish uchun A.Rean modifikatsiyalagan K.Zamfirning **“Kasbiy faoliyat motivatsiyasi”** metodikasidan foydalanildi. Uning asosini ichki va tashqi motivatsiya haqidagi konsepsiya tashkil etadi. Motivatsiyaning ichki tipi – shaxs uchun faoliyat o'z-o'zicha ahamiyatli. Agar kasbiy faoliyat motivatsiyasi asosini boshqa, faoliyat mazmuniga nisbatan tashqi ehtiyojlarni qondirish (ijtimoiy prestij, maosh va sh.k. motivatsiyalar) tashkil etsa, demak tashqi motivatsiya haqida so'z yuritiladi. Tashqi motivlarning o'zi ijobiy va salbiy tashqi motivlarga ajratiladi. Ijobiy tashqi motivlar, shubhasiz, barcha nuqtai nazardan salbiylariga nisbatan samarali va maqul ko'riladi. K.Zamfir metodikasi bo'yicha natijalar tahlili quyidagilarni ko'rsatdi: umuman, so'ralgan 1- va 4-kurs talabalarining yarmidan ko'prog'i pedagogik faoliyatga nisbatan ichki motivatsiya shakllanganligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Biroq, afsuski, bitiruvchi kursga kelib. Ichki motivatsiya oshish dinamikasi atigi 1,68% ga teng bo'ldi. Ijobiy tashqi motivatsiyadagi o'zgarishlar uning bitiruvchi kursga kelib, 5%ga oshganidan dalolat beradi. Aniqlangan natijalar talabalarining pedagogik kasbni egalladan manfaatdorligi oshishiga u qadar ham ko'maklashmaganini ko'rsatadi.

Shaxsning ko'plab hayotiy pozitsiyalar, jumladan, kasbiy sohaga munosabatini belgilaydigan yana bir muhim omil sifatida shaxsning qadriyatli munosabatlarini ko'rsatish mumkin. M.Rokichning **“Qadriyatli yo'nalganliklar”** metodikasi natijalariga ko'ra, 1-kurs talabalarida aniqlangan tafovuitlr va nomuvofiqlik nafaqat ta'lim, balki umuman hayotidagi yangi vaziyat bilan bog'liq asosga ega. Biroq 4-kurs talabalarining

shunday natijalari bitiruvchilarning kasbiy soha vazifalaridan ma'lum darajada uzoqligi hamda terminal va instrumental qadriyatlarining nomuvofiqligi va kasbiy faoliyatga etarlicha tayyor emaslikdan dalolat beradi.

Ta'lim va kasbiy o'zini o'zi belgilash imkoniyatlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydigan talabalarining tavsiflaridan biri shaxsning nazorat lokusi yoki sub'ektiv nazorat darajasi (SND) hisoblanadi.

Statistik tahlil natijalari ko'rsatdiki, tayfovutlar uchta: yutuqlar internalligi, omadsizlik va ishlab chiqarish shkalasi bo'yicha aniqlangan, bunda internallik ko'rsatkichi 4-kurs talabalarida 1-kurs talabalarinikiga nisbatan yuqoriroq. Bu natijalar talabalarda nazorat lokusini aniqlash sohasida ijobiy dinamikadan dalolat beradi, boshqa aytganda, bitiruvchi kursga kelib, talabalarda kasbiy faoliyat qanday kechishi, muvaffaqiyat va ehtimoliy omadsizliklar kishining o'ziga bog'liqligini tushunish shakllanishini qayd etish imkonini beradi. Qolaversa, ta'kidlash kerakki, bu faqat 10% talabaga yuqori ko'rsatkich darajasida xos, ularning yarmidan ko'prog'i o'rta darajada, qariyb uchdan bir qism (28%) talaba uchun esa eksternallik xos, ya'ni yutuqlar. Omadsizliklar va, umuman, kasbiy faoliyatning qanday kechishi, ularning fikricha, tashqi omillar – shart-sharoit va boshqa insonlarga bog'liq.

### 1-jadval


#### 1- va 4-kurs talabalarining umumiy va kasbiy soha bilan bog'liq internallik bo'yicha natijalaridagi tafovut ko'rsatkichlari (Spirmen mezoni)

t.r.	SHkalalar	O'rtacha Arifmetik		O'rtacha. kvadr. Chetlanish		Korrell. koeff.
		1-kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs	
1.	I – umumiy	52,33	53,15	3,09	3,39	,170
2.	I – yutuqlar	14,32	14,70	1,27	1,49	,716**
3.	I – omadsizlik	14,27	14,40	1,18	1,27	,903**
4.	I – ishlab chiqarish	11,77	11,97	1,14	1,18	,538**

**Izoh:** \*\* -  $p < 0,001$  da ahamiyatlilik darajasi.

Dj.Rotter metodikasida ishlab chiqarish sohasida internallik shkalasi istalgan mehnat faoliyatiga mo'ljallanganini hisobga olib, "SND" metodikasi muallifining barcha tamoyillariga asoslangan holda unda keltirilgan fikrlar pedagogik faoliyatning o'ziga xosligiga yo'naltirilgan mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqildi. Oldimizda mualliflik so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar ishonchli ekanini isbotlash vazifasi turardi. Alfa Kronbax koeffitsiyenti bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ,798 ekani aniqlandi. Deskriptiv statistikaning qolgan natijalari keyingi tahlillarda statistik hisob-kitobning noparametrik mezonlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Mualliflik so'rovnomasi natijalari keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 1- va 4-kurs talabalarining 70% idan ortig'ida o'zining kelguchi pedagogik faoliyatida kasbiy mas'uliyatni qabul qilish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar aniqlangan. Biroq bu tafovut statistik ahamiyatga ega emas. Korrelyatsiya koeffitsiyenti ,187 ni tashkil etadi (Spirmen  $p < 0,001$  ahamiyatlilik darajasida). Shunga qaramay, mazkur natija xavotirga soladi, chunki talabalarining to'rt dan uch qismi kelguchi kasbiy faoliyat doirasida nazorat lokusi internalligining o'rtacha darajasini namoyon qilgan.



*Izoh:* 1-qator – 1-kurs, 2-qator – 4-kurs

**1-rasm. Bo‘lajak pedagoglar kasbiy faoliyatida nazorat lokusi ko‘rsatkichlari, %da**

Tadqiqot doirasida respondentlarga yana bir mualliflik so‘rovnomasi taklif etildi, uning maqsadi talabalarning o‘z kasbiy imkoniyatlariga ishonchi tavsifida o‘ziga munosabatlari xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Ikkita guruh: 1- va 4-kurs talabarlari o‘rtasida o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlarining korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida hisob-kitobi ,695 ni tashkil etdi (Spirmen  $p < 0,001$  ahamiyatlilik darajasida), bu tafovutlar statistik ahamiyatining ancha yuqori ko‘rsatkichi sanaladi. Bu natija 4-kurs talabarlari 1-kurs talabalariga qaraganda o‘z imkoniyatlariga ko‘proq ishonishini ko‘rsatadi, ya’ni o‘zi va kasbiy qiyinchiliklarni engishda o‘z imkoniyatlariga ishonish bitiruvchi kursga kelib statistik ahamiyatli darajada oshadi. Biroq ta’kidlash muhimki, aniqlangan xususiyat talabalarning 10%i uchungina xos.

Talabalarning karyera-moslashish qobiliyatlari va kelgusi ishiga berilganligi Savikas-Porfeli metodikasi yordamida o‘rganildi. Bitiruvchi talabarlarda umumiy karyeraga moslashish pasaygani aniqlandi, garchi bunda manfaatdorlik, qiziquvchanlik va nazorat darajasi 1-kurs talabalarinikidan yuqoriroq. Karyera-moslashish qobiliyatlarining past darajasiga kelsak, 4-kurs talabalarida 1-kurs talabarlari bilan solishtirganda manfaatdorlik, nazorat shkalasi bo‘yicha pasayish, qiziquvchanlik shkalasi bo‘yicha jiddiy pasayish tendensiyasini ta’kidlash mumkin. Ko‘rsatkichlarning aniqlangan tafovutlari statistik ahamiyatlilikka tekshirib ko‘rildi, 2-jadvalda Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyentiga ko‘ra tafovutlar keltirildi.

2-jadvaldagi barcha ko‘rsatkichlardan tobora yuqori statistik ahamiyatli tafovut “Ishonch” shkalasida kuzatildi, ko‘rinishidan, bu 1-kurs talabarlari uchun o‘zini pedagog faoliyatida idrok qilish ancha murakkab, bitiruvchilarda esa, o‘zining kasbiy imkoniyatlariga ishonch ortadi, va shunday bo‘lishi ham kerak.

## 2-jadval

## 1- va 4-kurs talabalarining karyera-moslashish qobiliyatlari ko'rsatkichlaridagi tafovutning statistik ahamiyatliligi

T.r.	SHkala nomi	Korrelyatsiya koeffitsiyenti
1.	Manfaatdorlik	,211
2.	Nazorat	,261
3.	Qiziquvchanlik	,132
4.	Ishonch	,746**
5.	Karyeraga oid moslavchanlik	,242

*Izoh:* Spirmen  $p < 0,05$  da ahamiyatlilik darajasi.

Dissertatsiyaning «**Talabalarining shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini belgilaydigan shaxsiy tavsiflari**», deb nomlangan uchinchi bobida boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sir (hamkorlik) xarakterini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarni o'rganish natijalari taqdim etilgan.

M.Devisning «Ko'p omilli empatiya so'rovnomasi» metodikasi natijalariga ko'ra aniqlanishicha, 1-kurs talabari boshqa insonlarga hamkechinma bo'lish qobiliyati sifatidagi empatiya bo'yicha yuqori 12% ga teng ko'rsatkichni qayd etdi. Hamkechinma bo'lish qobiliyatining yuqori darajasi tendensiyasi talabalarining uchdan biridan kamrog'ida aniqlandi. Insonning ishonchli munosabatlar o'rnatish uchun muhim sifati – empatiya shakllanganligining past darajasiga keladigan bo'lsak, u 1-kurs talabalarininog qariyb 25% ida kuzatildi.

Empatiya xususiyatlari bo'yicha olingan 1- va 4-kurs talabalarining natijalarini qiyosiy tahlil ko'rsatdiki, boshqa insonlarga nisbatan iliqlik va hamkechinmalik hissini tuyin tendensiyasini baholaydigan, kimningdir hislariga “yordam beradigan” munosabat va hamkechinmalik, ya'ni boshqa insonga qaratilgan empatik hislarni aniqlaydigan “Empatik g'amxo'rlik” shkalasi bo'yicha aniqlandiki, empatiya darajasi yuqori ko'rsatkichlari 1-kurs talabari orasida ko'proq, empatiyaning past darajasiga ega talabalar esa kamroq foizni tashkil etdi (3-jadvalga qarang).

Talaba o'zining kundalik hayotda boshqa insonlar fikrini hisobga olishga moyilligini baholashga qaratilgan aniqlandiki, 4-kurs talabalarida yuqori daraja ko'rsatkichlari 1-kurs talabalariga ko'ra ko'proq. Qolaversa, bu tafovut statistik ahamiyatga ega. Detsentratsiya qobiliyati ijtimoiy faoliyatning muvaffaqiyatlilik bilan bog'liq va o'zini ko'proq hurmat qilish bilan tavsiflanadi, bu esa bitiruvchi talabalar uchun ko'proq darajada xos.

## 3-jadval

## 1- va 4-kurs talabalarining empirik tavsiflari ko'rsatkichlaridagi tafovutning statistik ahamiyatliligi, M.Devis metodikasi natijalari

T.r.	Shkala nomi	Korrelyatsiya koeffitsiyenti
1	Empatik g'amxo'rlik	,348**
2	Detsentratsiya	,307**
3	Empatik distress	,264*

*Izoh:* Spirmen  $p < 0,001$  da ahamiyatlilik darajasi.

Boshqalarga yordam berish, bunda empatik g'amxo'rlikdagidan farqli o'laroq o'ziga qaratilgan kechinmalarini kuzatish, vaziyatida ularning reaksiyasiga nisbatan noqulaylik va diskomfort hissini aniqlash imkonini beradigan «Empatik distress» shkalasi bo'yicha aniqlandiki, u 4-kurs talabalarida 1-kurs talabalariga qaraganda pastroq, statistik ahamiyatli tafovutga ega (3-jadvalga qarang). 1-kurs talabalari uchun boshqa insonlarning mashaqqatlari va kechinmalari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan xavotir va notinchlik kabi salbiy hislar ko'proq xarakterli. Boshqa mualliflar tadqiqotlari natijalari va M.Devisning o'zi taklif qilgan talqinga ko'ra bu hislar boshqaning hislarini inkor etish yoki yordam ko'rsatish bilan ulardan xalos bo'lishga intilishga olib keladi, biroq bu boshqaning farovonligi uchun emas, balki o'zining tinchligi uchun amalga oshiriladi. Bizningcha, bu 1-kurs talabalarida empatik hislarning yo'qligi bilan bog'liq emas, qolaversa birinchi shkala (Empatik g'amxo'rlik) bo'yicha 1-kurs talabalarining natijalari 4-kurs talabalarinikiga qaraganda statistik ahamiyatli darajada yuqori; balqi bu kabi vaziflarda adekvat reaksiya qila olmaslik bilan bog'liq. Umumiy xulosa shuki, pedagogika OTM talabalarining faqat chorak qismi uchun empatik tendensiyaning kelgusida o'quvchilar bilan pedagogik savodli o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zaruriy deb qaraladigan darjasi xos.

Empatiyaga qarama-qarshi tavsif sifatida dushmanlikni olish mumkin. Empirik tadqiqotda Kuka-Medleyning «Dushmanlik shkala si»dan foydalanildi. U tufayli uchta tavsif: tajovuzkorlik. Sinizm va dushmanlik aniqlandi. Sinizm psixologik fenomen sifatida boshqa insonlarning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini, xulq-atvor motivlarini shubha ostiga qo'yadigan shaxsiy pozitsiyasi yoki xulq-atvori.

Metodika mualliflari Kuka va Medleyning tushuntirishiga ko'ra, tajovuz insonlar va hodisalarga emotsional-affektiv reaksiya qilishga aloqador, qachonki dushmanlik boshqa insonlarga nisbatan ustanovka bilan bog'liq. Bu qoidadan kelib chiqqan holda, olingan natijalarni quyidagicha talqin qilish mumkin: 1-kurs talabalarida tajovuzning yuqori darajada namoyon bo'lish ustuvor tendensiyasi ortida ularning insonlar va hodisalarga nisbatan dushmanligi emas, balqi emotsional reaksiyaning impulsiv darajasi turibdi. Bunday talqin yana shu bilan bog'liqki, 1-kurs talabalari qiyin yoki nizoli vaziyatlarda adekvat reaksiya qilish kommunikativ ko'nikmalarini to'laqonli egallagan emas, shu sababli ularning reaksiyasi ortiqcha impulsiv – tajovuzkor ko'rinadi. 4-kurs talabalarida, har uchala xarakteristika: sinizm, tajovuz va dushmanlikning yuqori darajasi tendensiyasi ustunligida ifodalangan analogik tavsiflar aniqlangan.

Kuka-Medley metodikasi bo'yicha olingan natijalarning qiyosiy tahliliga ko'ra, ham 1-kurs, ham 4-kurs talabalarida sinizm yuqori darajada ifodalangan, buni talabalarning, boshqa insonlarning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini va xulq-atvor motivlarini shubha ostiga olish bilan tavsiflanadigan, shaxsiy pozitsiyasi yoki ularning xulq-atvori ustuvor tendensiyasi sifatida baholash mumkin. Aniqlangan bu xususiyat bo'lajak pedagogning pozitsiyasiga sira muvofiq kelolmaydi.

Spirmenning korrelyatsiya koeffitsiyenti  $p < 0,001$  ahamiyatlilik darajasida qo'llanganda Kuka-medley metodikasi bo'yicha 1- va 4-kurs talabalarining har uchala shkala, aynan esa sinizm (0,052), tajovuz (0,041) va dushmanlik (0,021) bo'yicha ko'rsatkichlarida statistik ahamiyatli tafovut aniqlanmadi. Yaqinda, aniqrog'i 2023-yilda S.D.Sharopova tomonidan tadqiqot o'tkazilib, unda Bars-Darkining "Tajovuz namoyonliklarini aniqlash" metodikasi yordamida anilandiki, talabalarda tajovuzning

tobora sezilarli ko‘rinishi asabiy tutqanoqlar, tajovuzning jismoniy ko‘rinishi sanaladi, negativizm kamroq aniqlangan.

M.Rokichning “SND” metodikasi bo‘yicha 1- va 4-kurs talabalari ishtirokida umumiy shkala va shaxslararo munosabatlarda internallik shkalasi bo‘yicha olingan natijalar ko‘rsatdiki, o‘rtacha ko‘rsatkich ham 1-kurs, ham 4-kurs talabalari orasida ko‘proq qayd etildi, nazoratning internal lokusi yuqori darajasi 1-kurs talabalarining 11%i, 4-kurs talabalarining 16% ida qayd etildi. “Shaxslararo munosabatlarda internallik” shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar, metodika muallifi nuqtai nazaridan, inson o‘zini boshqalarning hurmati va simpatiyasiga loyiq, munosabatlar harakteri jumladan uning o‘ziga hambog‘liq. deb hisoblashidan dalolat beradi.

Aksincha, eksternallik 1-kurs talabalarining deyarli uchdan bir qismida va 4-kurs talabalarining chorak qismida aniqlandi. Bu natijalar talabalar o‘zlarining atrofdagilar bilan munosabatlarida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga moyil emasligidan dalolat beradi. Talabalarining bu guruhi nuqtai nazaricha, boshqa insonlar bilan munosabatlarning qanday kechishi boshqa insonlar yoki shart-sharoit ta’siri natijasidir.

Aniqlangan tafovutlar 1- va 4-kurs talabalarida tafovutlarning ahamiyatligini statistik tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi. 1- va 4-kurs talabalar o‘rtasida statistik ahamiyatli tafovutlar aniqlanmadi, buni talabalarda 4-yil ta’lim olish davomida internallik darajasi ortmasligining tasdig‘i sifatida baholash mumkin, bu, o‘z nabatida, bitiruvchilarning shaxslararo munosabatlar sohasidagi infantil yoki ortiqcha passiv pozitsiyasidan dalolat beradi. Talabalar shaxslararo munosabatlarni qurishda faollik o‘rniga eksternallikni namoyon qiladi, hammasi yoki ko‘pi boshqa insonlar yoki tashqi shart-shiroatlarga bog‘liq, deb hisoblaydi.

M.Rokichning “Qadriyatli yo‘nalganliklar” metodikasida shaxslararo munosabatlar sohasiga bevosita aloqador shkala mavjud. 4-jadvalda terminal qadriyatlarining ikkita: ijtimoiy soha va shaxslararo munosabatlar sohasi bo‘yicha “Qadriyatli yo‘nalganliklar” metodikasi bo‘yicha natijalari keltirilgan.

#### 4-jadval

#### M.Rokichning metodikasi bo‘yicha 1- va 4-kurs talabalarining terminal qadriyatlarini taqsimlanishi

T.r.	Ijtimoiy soha				Shaxslararo munosabatlar sohasi			
	Foiz		Tanlov raqami		Foiz		Tanlov raqami	
	1-kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs
1	65	60,6	5	4	45,6	48	6	6
3	88	75,3	1	1	74	73,3	5	3
5	69,6	45,3	4	6	62,3	48,6	5	5
<b>Umumiy</b>	<b>74,2</b>	<b>60,4</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>60,6</b>	<b>56,6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>

Birinchi kurs talabalarining terminal qadriyatlarini ro‘yxatidagi birinchi uchta tanlov/ranjirlash natijalari taqdim etildi. To‘rtinchi o‘rinda (tanlov) ijtimoiy qadriyatlar, jumladan, ma’naviy qadriyatlar. Oxirgi, ya’ni oltinchi o‘rinda shaxslararo munosabatlar qadriyatlarini. 4-kurs talabalarida ijtimoiy soha qadriyatlarini beshinchi o‘rinda, shaxslararo munosabatlar qadriyatlarini oxirgi o‘rinda. 1-va 4-kurs talabalarini o‘rtasida taqsimlanishda prinsipial tafovutlar aniqlanmadi. Alohida ta’kidlash kerakki,

shaxslararo munosabatlar qadriyatlar har ikkala guruhda oltinchi, oxirgi o'ringda. Aftidan, bu jamoaviy hayot tarzining ahamiyati pasaygani va individualistik hayot tarzi qadriyatlar ustunligidan dalolat beradi. Biroq qayd etish lozimki, oxiridan oldingi o'ringda talabalarda ijtimoiy hayot qadriyatlar bo'lib, ular, jumladan, quyidagi kabilarni o'z ichiga oladi: "Boshqa insonlarning farovonligi, rivojlanishi va takomillashuvi", "Shaxsning turli tomonlarga rivojlanishi, ma'naviy takomillashuvi". Talabalarining ustuvor terminal qadriyatlar kasbiy soha va moliyaviy farovonlik qadriyatlar sanaladi.

5-jadvalda 1- va 4-kurs talabalarining ijtimoiy soha va shaxslararo munosabatlar sohasidagi instrumental qadriyatlar taqsimlanishi keltirilgan.

### 5-jadval

#### M.Rokichning metodikasi bo'yicha 1- va 4-kurs talabalarining instrumental qadriyatlar taqsimlanishi, (% da)

T.r.	Ijtimoiy soha				Shaxslararo munosabatlar sohasi			
	Foiz		Tanlov raqami		Foiz		Tanlov raqami	
	1-kurs	4-kurs	1 kurs	1-kurs	4-kurs	4 kurs	1-kurs	4-kurs
1	73	82	4	1	71	63,3	6	5
3	92	70	1	2	85,3	72,6	3	1
5	89	64	1	4	83,6	81,3	3	2
<b>Umumiy</b>	84,6	72	1	2	79,9	72,4	2	1

Ijtimoiy (1-o'rin) va shaxslararo munosabatlar (2-o'rin) qadriyatlar yetakchi o'rin tutadi. Aftidan, 1-kurs talabalarining terminal va instrumental qadriyatlar o'rtasida muvofiqlik mavjud emas, bu talabalarining maqsadlar va real intilishlar yoki realizatsiyasi farq qilishidan dalolat beradi. Masalan, shaxslararo munosabatlar qadriyatlar terminal qadriyat sifatida oxirgi o'ringda, xuddi shu qadriyat instrumental qadriyatlar kategoriyasida ikkinchi o'ringda. Buni pedagogika OTM ga o'qishga kirib, talabalar kelgusi kasbini egallashni maqsad qilgani, biroq reallikda ularning faolligi ko'proq darajada shaxslararo munosabatlar qadriyatlariga yo'naltirilgani bilan talqin qilish mumkin. Bunday natija ma'lum ma'noda talabalarining, ayniqsa ta'limning boshlang'ich davridagi, yoshga oid xususiyatlar bilan muvofiq keladiki, u yangi ijtimoiy vaziyatga moslashish va kursdoshlarining yangi jamoasi va yangi o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishni talab etadi.

4-kurs talabalarining instrumental qadriyatlar ranjirlanishini tahlil qilganda qiziqarli natijalar olindi. Birinchi o'rinni shaxslararo munosabatlar qadriyatlar, ikkinchi o'rinni esa ijtimoiy hayot qadriyatlar egalladi. Bir qarashda, bitiruvchi kurs talabalar uchun kasbiy instrumental qadriyatlar ustuvorligi xos bo'lishi kerakdek. Shunga qaramay, pedagogik faoliyatli shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin ekanini hisobga olib, olingan natijalarni pedagogika OTM bitiruvchi kurs talabalar foydasiga talqin qilish mumkin.

Shu bilan birga, terminal va instrumental qadriyatlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar hamma vaqt talabalar tomonidan qo'yilgan maqsadlar (bularga terminal qadriyatlar mos keladi) hamda usullar va faollikning mazmuniy yo'nalganligi (bularga instrumental qadriyatlar mos keladi) o'rtasida kogruentlikning muhimligini etarlicha anglanmasligi va tushunilmasligidan dalolat beradi.

Empatiya, dushmanlik, tajovuzkorlik, sinizm xususiyatlari, shuningdek shaxslararo munosabatlardagi internallik, respondentlarning boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlay olishi, shaxslararo munosabatlarda terminal va instrumental qadriyatlarining muvofiqligini ijtimoiy etuklik mezonini sifatida baholash mumkin va lozim. Qolaversa, bu shaxsiy xususiyatlar zamonaviy inson faoliyatining hamma: ham kasbiy, ham oilaviy, ham ahamiyatli insonlar bilan o‘zaro munosabatlar sohasiga singib ketgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi – «**Talabalar psixologik farovonligi xususiyatlari va ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi**» deb nomlangan bobida 1- va 4-kurs talabalarining psixologik farovonligi o‘zgarishlari xususiyatlari bayon qilingan. Tadqiqot doirasida K.Riff tomonidan ishlab chiqilgan hamda T.D.Shevelenkova va P.P.Fesenko tomonidan moslashtirilgan va validlangan metodikadan foydalanildi.

Quyida 1- va 4-kurs talabalarining K.Riff metodikasining barcha shkalalari bo‘yicha natijalari keltirilgan (6-jadvalga qarang).

6-jadval ma’lumotlaridan barcha shkalalar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar ustunligi aniq ko‘rinadi. Barcha shkalalar bo‘yicha yuqori natijalar sezilarli darajada kam, “avtonomiya” shkalasi bundan mustasno, talabalarining deyarli to‘rtidan bir qismida avtonomiyaning yuqori darajasi aniqlangan. Bir necha shkala, xususan, “Hayotiy maqsad”, “Muhitni boshqarish”, “Ijobiy munosabatlar” va “Shaxsiy o‘shish” bo‘yicha tobora past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Umuman, natijalar 1-kurs talabalarining 25%idan 38%igacha psixologik farovonlikning past darajasi xosligidan dalolat beradi.

#### 6-jadval

#### Riffning “Psixologik farovonlik” metodikasi bo‘yicha 1- va 4-kurs talabalarining natijalari (%larda)

T.r	Shkala nomi	Past		O‘rta		YUqori	
		1- kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs	1-kurs	4-kurs
1	Ijobiy munosabatlar	38,36	50,48	61.17	42,78	0.42	6,73
2	Avtonomiya	14,47	26,92	60.29	56,25	23.01	16,82
3	Muhitni boshqarish	29,81	43,75	67.6	54,80	1.53	1,44
4	Shaxsiy o‘shish	28,71	46,15	69.28	51,92	1.96	1,92
5	Hayotiy maqsad	35,73	49,51	63.58	45,67	0,65	4,80
6	O‘zini qabul qilish	24,54	32,21	72.13	65,38	3.28	2,40
	Umumiy ball	32,43	53,36	64.46	42,30	3,07	4,32

Psixologik farovonlikning aniq ifodalangan past darajasi 4-kurs talabalarida, so‘ralganlarning deyarli yarmida “Ijobiy munosabatlar” va “Shaxsiy o‘shish” shkalalari bo‘yicha aniqlandi. Biroq psixologik farovonlik tavsiflarining yuqori ko‘rsatkichlari bo‘yicha 4-kurs talabalarini, umuman olganda, 1-kurs talabalariga nisbatan “yaxshiroq ko‘rinadi”. Past foizli ko‘rsatkichlar “Muhitni boshqarish” va “Shaxsiy o‘shish” shkalalari bilan bog‘liq.

Spirmenning korrelyatsiya koeffitsiyentini  $p < 0,01$  ahamiyatlilik darajasida qo‘llab aniqlandiki, psixologik farovonlikning barcha ko‘rsatkichlari va umumiy ballar bo‘yicha 1-kurs talabalarini natijalari 4-kurs talabalarinikidan statistik ahamiyatli darajada yuqori (7 jadvalda ko‘rsatilgan). Buni maktab bitiruvchisi uchun OTMga kirish shaxsiy

yutuq ekani, buni his qilish qator ijobiy tendensiyalar, masalan, avtonomlik, hayotda aniq maqsad borligi, ijobiy munosabatlar uchun ochiqlik va shaxsiy o‘‘sishni his qilish bilan birga kechishi bilan izohlash mumkin.6-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, psixologik farovonlikning past darajasi 4-kurs talabalarining yarmidan ko‘prog‘ida qayd etildi. Shu bilan birga, psixologik farovonlikning yuqori darajasi 1- va 4-kurs talabalarining qariyb bir xil qismida – butun tanlanmaning 5 foizidan kamrog‘ida aniqlandi.

“O‘zini qabul qilish” shkalasi bo‘yicha aniqlandi 1- va 4-kurs talabalari o‘rtasida statistik ahamiyatlilikning tobora yuqori darajasi 0,743 ni tashkil qildi. O‘ziga ijobiy munosabat, o‘zining turli tomonlari, jumladan yaxshi va yomon sifatlarini qabul qilish, o‘z hayotini ijobiy baholash 1-kurs talabalari uchun xos. 4-kurs talabalari uchun ko‘proq darajada o‘zidan norozilik, o‘z hayotidagi hodisalardan ko‘ngil qolishi, ayrim shaxsiy sifatleri tufayli xavotirlik, shuningdek, metodika kalitiga ko‘ra, aslida bo‘lgan odami bo‘lmashlikni istash xarakterli.

“Shaxsiy o‘‘sish” shkalasi bo‘yicha ham 1 - va 4-kurs talabalari o‘rtasidagi tafovut statistik ahamiyatli. Bu 1-kurs talabalari uchun o‘zini “o‘sayotgan” va o‘zini realizatsiyalayotgan, yangi tajriba uchun ochiq deb his qilish xosligidan dalolat beradi. 1-kurs talabalari o‘z salohiyatini realizatsiyalanayotganini his qiladi, o‘zida va o‘z xatti-harakatlarida yaxshilanishlarni ko‘ra biladi. Bitiruvchilar, ya‘ni 4-kurs talabalari o‘zining rivojlanishiga nisbatan kamroq pozitiv hislarni tuyadi. Aynan: o‘zining rivojlamayotganini anglab etadi, yaxshilanish yoki o‘zini o‘zi realizatsilashni his qilmaydi, hayotga qiziqish pasayadi, zerikish, yangi munosabatlar o‘rnatish yoki o‘z xulqini o‘zgartirishni istamasligini his qiladi.

“Hayotiy maqsad” shkalasi bo‘yicha analogik natijalar qayd etildi, boshqacha aytganda, 1-kurs talabalarining natijalari nisbatan pozitiv, bu tafovut statistik ahamiyatga ega (,628. 7-jadvalga qarang). 1-kurs talabalari uchun o‘zining hayotdagi maqsadini shakllantirish va yo‘nalganloik hissi, shuningdek, hayotda maqsad va mo‘ljallarga ega bo‘lgani holda hayotiy maqsad manbasi bo‘lgan e‘tiqodlarga amal qilish xos. 4-kursga kelib, bu kabi optimizm pasayadi va bitiruvchilar uchun endi aksi xos – yo‘nalganlik hissi hamda hayot maqsadini belgilaydigan istiqbol yoki e‘tiqodlarning ahamiyatliligi pasayadi.

## 7-jadval

### K. Riffning “Psixologik farovonlik” metodikasi shkalalari bo‘yicha 1- va 4-kurs talabalari ko‘rsatkichlarida tafovutlarning ahamiyatliligi

T.r.	Shkala nomi	O‘rtacha arifmetik		Korrelyatsiya koeffitsiyenti
		1-kurs	4-kurs	
1	Ijobiy munosabatlar	54,36	52,77	,335*
2	Muhitni boshqarish	53,75	52,44	,531**
3	Shaxsiy o‘‘sish	57,30	53,91	,692**
4	Hayotiy maqsad	56,74	53,75	,628**
5	O‘zini qabul qilish	54,79	51,67	,743**
6	Hayotning anglashilganligi	91,56	87,19	,472**
7	Inson ochiq tizim sifatida	60,15	57,38	,416**
	Psixologik farovonlikning umumiy balli	332,81	318,10	,688**

**Izoh:** \* -  $p < 0,05$  da ahamiyatlilik darajasi; \*\* -  $p < 0,001$  da ahamiyatlilik darajasi.


“Muhitni boshqarish” shkalasi bo‘yicha analogik vaziyat qayd etildi – tafovutlar statistik ahamiyatga ega (,531). 1-kurs talabalari bitiruvchilardan o‘rtacha yoshiga ko‘ra kichikroq bo‘lishiga qaramay, ularning nuqtai nazaricha, muhitni (atrofdagilarni) boshqarish kompetensiyasiga ega, tashqi faoliyatni nazorat qiladi. 4-kurs talabalari uchun kundalik faoliyatni tashkil qilishda qayg‘uriy xos, ular o‘zini yuzaga kelayotgan vaziyatlarni o‘zgartirish yoki yaxshilashga qodir emas deb biladi, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni qadrlamaydi, shuningdek, ularda atrofda ro‘y berayotgan hodisalarni nazorat hissi pasaygan.

7-jadvaldan ko‘rinadiki, “Ijobiy munosabatlar” shkalasi bo‘yicha statistik ahamiyatli tafovutlar 1-kurs talabalari uchun 4-kurs talabalariga qaraganda atrofidaqilar bilan tobora qoniqarli va ishonchli munosabatlar xos. 1-kurs talabalari uchun boshqalarning farovonligi haqida qayg‘urish va ularga hamkechinmalik yuqori darajada xarakterli; ularda o‘zaro bag‘lanib qolish va yaqin munosabatlar kuzatiladi. 4-kurs talabalari uchun atrofidaqilar bilan ishonchli munosabatlar miqdoriga cheklov kiritish xos. Ta’lim olgani va kattalashgani sari talabalar yanada “yopiq” (“ichimdagini top”) bo‘lab boradi, boshqalarga nisbatan iliqlik va g‘amxo‘rlikni kamroq namoyon qiladi; o‘zaro munosabatlarda “masofani tutishga” harakat qiladi, atrofidaqilar bilan muhim aloqalarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘zaro kelishuv (kompromiss)ga kelishni istamaydi.

“Hayotning anglashilganligi” qo‘shimcha shkalasi bo‘yicha analogik natijalar aniqlandi. 7-jadvalda ko‘rsatilganidek, tafovutlarning statistik ahamiyati ,472 ni tashkil etadi. 4-kurs talabalari uchun hodisalar mazmundorligi pasayishi nuqtai nazaridan o‘tmish va hozirni salbiy qabul qilish xos. Bitiruvchilar uchun etarlicha jozibador hayotiy istiqbollarning ahamiyati ular uchun pasaygan. 1-kurs talabalarida hayotiy maqsadlar va hayot mazmuni bilan bog‘liq yanada yuqori ko‘rsatkichlar aniqlandi. Ularda hayotga mazmun bag‘ishlovchi e‘tiqodlar mavjud, shuningdek, 1-kurs talabalari uchun zini maqsad sari intiluvchan inson sifatida baholash xos.

“Inson ochiq tizim sifatida” shkalasi bo‘yicha, olding shkalalardagi kabi, 1- va 4-kurs talabalari ko‘rsatkichlarida tafovutlarning statistik ahamiyatliligi (,416) aniqlandi. 1-kurs talabalari olgan ballar yangi axborotni o‘zlashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Ularda hayotga yaxlit, realistik qarash, yangi tajriba uchun ochiqlik, kechinmalarning bevositaligi va tabiiyligi shakllanadi. Bitiruvchi kursga kelib, bu tendensiya pasayadi. Bitiruvchi talabalar uchun hayotning turli jihatlarini fragmentar, etarlicha bo‘lmagan realistik idrok etishning shakllanganligi xos.

Butun metodika bo‘yicha psixologik farovonlikning umumiy balli K.Riff metodikasi shkalalari ustuvor miqdorida aniqlangan tendensiyaning ifodaladi va ,688 ni tashkil etdi. Olingan natijalar, bir tomondan, talabalarning psixologik farovonligi 1-kursdan 4-kursga pasayib borganidan dalolat beradi. Bizningcha, bu natijalarni 1-kurs talabalari OTMga qabul qilinganidan keyin quvonch va o‘zining kelajagini rejalashtirishda ilhomlanishni his qiladi, psixologik farovonlikning nisbatan yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. SHu fikrni davom ettirib, ravshanki, bu kabi hissiy ko‘tarinkilik bitiruvchi talabalarga ham xos bo‘lishi kerak edi, chunki ular oldida “katta” hayot eshiklari ochilmoqda. Biroq, aksincha, K.Riff metodikasining barcha shkalalari bo‘yicha bitiruvchilarda psixologik farovonlik 1-kurs talabalariga nisbatan pasayishi aniqlandi. Bir tomondan, buni talabalik hayoti tugayotganidan achinish bilan izohlash mumkin, biroq biz bu kabi talqin bilan cheklanmaymiz, zero oliy ta’lim tizimi, birinchi navbatda, talabalik hayot tarzini emas, balki mustaqil katta hayotga kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarlik davri sifatida etilish va katta bo‘lishni nazarda tutadi.



2-rasm. OTM talabalarining ijtimoiy yetukligi va farovonligini qo'llab-quvvatlash modeli

“Hayotiy maqsad” shkalasi bo‘yicha analogik natijalar qayd etildi, boshqacha aytganda, 1-kurs talabalarining natijalari nisbatan pozitiv, bu tafovut statistik ahamiyatga ega (,628. 7-jadvalga qarang). 1-kurs talabalari uchun o‘zining hayotdagi maqsadini shakllantirish va yo‘nalganlik hissi, shuningdek, hayotda maqsad va mo‘ljallarga ega bo‘lgani holda hayotiy maqsad manbasi bo‘lgan e‘tiqodlarga amal qilish xos. 4-kursga kelib, bu kabi optimizm pasayadi va bitiruvchilar uchun endi aksi xos – yo‘nalganlik hissi hamda hayot maqsadini belgilaydigan istiqbol yoki e‘tiqodlarning ahamiyatligi pasayadi.

Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslanib, talaba-yoshlarning ijtimoiy etukligi va psixologik farovonligi shakllanish xususiyatlari psixologik modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

Talabalar psixologik farovonligi markerini qaysidir ma‘noda kelajakka umumiy shaxsiy chog‘lanish sifatida qarash mumkin. Tadqiqot natijalari bitiruvchilarning hissiy chog‘lanishi faol hayotiy pozitsiyaga u qadar ko‘maklashmasligini tasdiqlamoqda, chunki ularda psixologik holatning ahamiyatli munosabatlardan uzoqlashishga intilish, muhitni boshqarish hissini pasayishi, o‘zi va o‘z imkoniyatlaridan qoniqmaslikni his qilish va, umuman, psixologik farovonlikning birmuncha pasaygan darajasi ustunlik qiladi.

Shaxsning ijtimoiy yetukligi – oila, maktab, OTM, ijtimoiy muhit, umuman, sotsium tomonidan amalga oshiriladigan ta‘lim va tarbiya jarayonining asosiy yutuqlaridan birini tavsiflovchi tushuncha. Ijtimoiy yetuklik shaxsning hayotiy faoliyatning barcha sohalarida xulq-atvori yaxlitligi, oldindan aytib berish mumkinligi, ijtimoiy yo‘nalganligi bilan tavsiflanadigan barqaror holati sifatida baholanadi. etuk shaxs – o‘z muhitini faol egallagan, shaxsiy sifat va qadriyatli yo‘nalganliklarning barqaror bilgigiga ega hamda insonlar va o‘zini to‘g‘ri qabul qila oladigan shaxs.

O‘spirinlik davri insonning mustaqil va katta hayotining boshlanish davri hisoblanadi. 18-25 yoshda jismoniy etilish nihoyasiga etadi, ijtimoiy yetuklikka erishiladi va birlamchi ijtimoiylashish oxiriga etadi, hayotning kasbiy sohasi rivojlana boshlaydi.

## XULOSA

Talaba-yoshlarning ijtimoiy yetukligi shakllanishini o‘rganish pedagogik OTM talabalarining kasbiy tiklanish dinamikasini aniqlash zaruratin o‘z ichiga oladi, zero ijtimoiy etuk shaxs – jumladan mehnat faoliyatida kasbiy vazifalarni hal qilishga faol jalb etilgan shaxs. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xususiy xulosalar shakllantirildi:

**1.** Birinchi va to‘rtinchi kurs talabalarining yarmidan ko‘prog‘i pedagogik faoliyatga ichki va tashqi ijobiy motivatsiya shakllanganligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qildi. Olingan natijalar OTM da o‘qish davrida talabalarining pedagogik kasbni egallashdan manfaatdorligini oshirishga ko‘maklashadigan etarlicha zaxiralar mavjudligidan dalolat beradi.

1- va 4-kurs talabalarining kasbiy sohadagi terminal va instrumental qadriyatlarida aniqlangan nomuvofiqlik 1-kurs talabalari uchun yangi hayotiy vaziyat bilan bog‘lab asoslanadi: 1-kurs talabalari oldida OTM tizimiga moslashish va yangi guruhda shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish vazifasi turadi. Biroq, 4-kurs

talabalarida aniqlangan analogik natijalar etarlicha shakllanmaganlik va kasbiy mas'uliyatga etarlicha tayyor emaslikdan dalolat beradi.

**2.** 1-va 4-kurs talabalarida nazoratning internal va eksternal lokusi dinamikasi xususiyatlari o'rganilganda aniqlandiki:

1-va 4-kurs talabalarining kichik qismida nazoratning internal lokusi qayd etildi, bu talabalar uchun o'zining yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini tashqi omillar – boshqa odamlar va shart-sharoitlar bilan izohlash xosligidan dalolat beradi. Talabalarining qariyb chorak qismigina hayoti qanday kechishi o'z sa'y-harakatlari, intilishlariva imkoniyatlariga bog'liq, deb hisoblaydi.

1- va 4-kurs talabalarida aniqlangan shaxslararo munosabatlardagi internallik so'ralganlarning beshdan bir qismi uchun xos. Eksternallik 1-kurs talabalarining uchdan bir qismida, 4-kurs talabalarining chorak qismida aniqlangan. Bu natijalar talabalar o'zlarining atrofdagilar bilan munosabatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga moyil emasligi, ularning boshqalar bilan munosabatlari qanday kechishi boshqa insonlar yoki shart-sharoit ta'sirining natijasi deb hisoblashidan dalolat beradi. 1- va 4-kurs talabalarida ko'rsatkichlarida statistik ahamiyatli tafovut aniqlanmadi.

**3.** Shaxsiy yetuklik mezonlari uning ijtimoiy funksiyalarni bajarish, boshqa insonlar bilan muvaffaqiyatli o'zaro hamkorlik qilish va ijtimoiy voqelikni adekvat bilish hamda shu asosda o'zining hayot yo'lini qurish qobiliyati bilan bog'liq.

Boshqa insonlarga hamkechinma bo'lish qobiliyati sifatida empatiyaning yuqori darajada shakllanlari bo'yicha past natijalar qayd etildi: 1-kurs talabalarining o'ndan bir qismida yuqori natija kuzatilgan bo'lsa, 4-kurs talabalarida bu ko'rsatkich yana ham past. Kundalik hayotda boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olishga moyillik 4-kurs talabalarida 1-kurs talabalariga qaraganda yuqoriroq, tafovut statistik ahamiyatga ega. Markazdan qochish (detsetratsiya) qobiliyati ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatlilik bilan bog'liq va o'ziga hurmatning ancha yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Empatik qobiliyatlarning kelgusida o'quvchilar bilan pedagogik savodli o'zaro ta'sirni amalga oshirish uchun zarur daraja deb baholash mumkin bo'lgan darajasi pedagogika OTM talabalarining faqat to'rtidan bir qismi uchun xos.

**4.** Talabalarining shaxsiy tavsiflarini empirik o'rganish quyidagi xususiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

o'zi va o'z imkoniyatlarga ishonchning yuqori darajasi ham 1-, ham 4-kurs talabalarining choragidan kamrog'i uchun xos. Statistik ahamiyatli tafovut ikkita guruh – 1- va 4-kurslarda o'ziga ishonch ko'rsatkichida qayd etildi. Olingan bu natijalar OTMda o'qish davri talabalarining o'ziga munosabatida ijobiy o'zgarishlarga ko'maklashishidan dalolat beradi.

1- va 4-kurs talabalarida bir xil dinamika kuzatildi – asosiy tavsif sinizm, tajovuz va dushmanlikning yuqori darajasi ustuvorligi hisoblanadi. Talabalarda tajovuzning namoyon bo'lishi insonlar va voqealarga nisbatan dushmanlik emas, balki impulsivlik va reaktivlik bilan tavsiflanadigan hissiy reaksiyaning yuqori darajasi bilan bog'liq. 1- va 4-kurs talabalarida aniqlangan sinizmning yuqori darajasini boshqa insonlarning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini hamda xulq-atvor motivlariga shubha bilan tavsiflanadigan talabalarining shaxsiy pozitsiyasi yoki xulq-atvori ustuvor tendensiyasi sifatida baholash mumkin.

**5.** Talabalarining qadriyatli yo‘nalganliklarini empirik o‘rganish quyidagi xususiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1- va 4-kurs talabalarining terminal qadriyatlari orasida shaxslararo munosabatlar qadriyatlari faqat oxirgi o‘rinda. Ehtimol, bu jamoaviy hayot tarzining ahamiyati pasaygani va individualistik hayot tarzining ustuvorligidan dalolat beradi. Terminal va instrumental qadriyatlar o‘rtasida nomuvofiqlik, odatda, talabalarining qadriyatlar va ularga erishish yo‘llari o‘rtasida muvofiqlikning muhimligini etarlicha anglamasligi va tushunmasligidan dalolat beradi.

1- va 4-kurs talabalarining terminal qadriyatlari ranjirlanganda kasbiy soha, oilaviy hayot va moliyaviy ta‘minlanganlik qadriyatlarining ustuvorligi aniqlandi. Alohida ta‘kidlash kerakki, shaxslararo munosabatlar qadriyatlari respondentlarning har ikkala guruhida so‘nggi o‘rinni egalladi.

Talabalarining terminal va instrumental qadriyatlarini ranjirlash natijalari ularning nomuvofiqligini ko‘rsatdi, bu ham 1-, ham 4-kurs talabalarining etarlicha yetuk emasligi va o‘z maqsadlari va ularga qanday erishish mumkinligini tushanmasligidan dalolat beradi.

**6.** Talabalar psixologik farovligi xususiyatlarini kelajakka umumiy chog‘lanish sifatida qarash mumkin. Tadqiqot natijalari bitiruvchilarning hissiy chog‘lanishi faol hayotiy pozitsiyaga to‘la mos kelmasligini ko‘rsatdi, zero psixologik holatning: ahamiyatli munosabatlardan o‘zini olib qochishga intilish, muhitni boshqarish imkoniyatlari hissining pasayishi, o‘zi, o‘z imkoniyatlaridan qoniqmaslikni his qilish kabi tavsiflari, umuman, psixologik farovonlikning past darajasi ustunlik qiladi.

Psixologik farovonlikning barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha 1-kurs talabalarining natijalari 4-kurs talabalarining natijalaridan statistik ahamiyatli darajada yuqori. Buni maktab bitiruvchisi uchun OTMga kirish shaxsiy yutuq ekani, buni his qilish qator ijobiy tendensiyalar bilan birga kechishi bilan izohlash mumkin. Psixologik farovonlikning past darajasi 4-kurs talabalarining yarmidan ko‘prog‘ida qayd etildi. SHu bilan birga, psixologik farovonlikning yuqori darajasi 1- va 4-kurs talabalarining qariyb bir xil qismida – butun tanlanmaning 5 foizidan kamrog‘ida aniqlandi.

**7.** 1-kurs talabalarini psixologik farovonligining asosiy tavsiflari: o‘ziga nisbatan bir muncha pozitiv munosabat, o‘z hayotini ijobiy baholash; atrofdagilar bilan nisbatan qoniqarli va ishonchli munosabatlar, boshqalarning farovonligi haqida ko‘proq darajada g‘amxo‘rlik, yangi tajriba uchun ochiqlik, kechinmalarning bevositaligi va tabiiyligi sanaladi.

4-kurs talabalarini psixologik farovonligining asosiy tavsiflari: o‘zidan qoniqishning kamligi, o‘z hayotidagi hodisalardan qandaydir ko‘ngil qolishi; hayot mazmunini belgilaydigan istiqbol yoki e‘tiqodning ahamiyati hissining kamayishi; bitiruvchi talabalar bir muncha yopiq (“ichimdagini top”) bo‘lib qoladi, shaxslararo munosabatlarda “masofa saqlashga” harakat qiladi; bitiruvchilar uchun munosib jozibadorlikka ega hayotiy istiqbollarning ahamiyati pasaygan.

Olingan natijalar talabalarining psixologik farovonligi 1-kursdan 4-kursga pasayib borganidan dalolat beradi, bizningcha, bu natijalarni 1-kurs talabalarini OTMga qabul qilinganidan keyin quvonch va o‘zining kelajagini rejalashtirishda ilhomlanishni his qiladi, psixologik farovonlikning nisbatan yuqori darajasi bilan tavsiflanadi.

**8.** Psixologik farovonlik, subyektiv nazorat darajasi, qadriyatli yo‘nalganliklar va kasbiy mas‘uliyatning nomuvofiqligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida aniqlangan tafovutlar

shundan dalolat beradiki, 1-kurs talabalari uchun o'zini tushunishning shakllanmaganligi va o'z bahosida xohlaganini mavjud deb bilish xos. 1-kurs talabalarida OTM ga kirish, ko'rinishidan, psixologik farovonlik uchun xos bo'lgan hissiy holatni izohlaydi. 4-kurs talabalari uchun katta mustaqil hayotda mehnat qilish, nafaqat. kasbiy va ijtimoiy sohalarida qiyinchiliklar, nafaqat obyektiv qiyinchiliklar, balki ichki shaxsiy ziddiyatlar va shubha-gumonlarni yengib o'tish zarurligini tushunish xos. Bularning hammasi yosh shaxsga ancha yuqori talablarni qo'yadiki, ularni uddalash hamma vaqt ham oson emas. Aynan shu jihat bitiruvchi talabalarda psixologik farovonlikning ko'rsatkichlari "pasayishiga" olib keladi.

Psixologik farovonlikni, ayniqsa talaba-yoshlarda o'rganish, alohida dolzarblik kasb etadi, zero insonning o'z qoniqishlarini ijobiy baholashi hayotning turli sohalarida samaradorlik ko'rsatkichlari va shaxsning muvaffaqiyatlilikgi ko'rsatkichlari ortishiga olib keladi.

## **TAVSIYALAR**

Pedagogika OTM 1-va 4-kurs talabalarining ijtimoiy-psixologik yetukligi va psixologik farovonligi xususiyatlarini o'rganish natijalari asosida tyutorlar, guruh murabbiylari, yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimlarining faoliyatini aniqlashtirish va kengaytirish bo'yicha tavsiyalarni keltirish mumkin. Shuningdek, Pedagogika va psixologiya fakultetining bitiruvchi kurs talabalari va magistratura talabalari tomonidan bo'lajak fan o'qituvchilarini tayyorlaydigan fakultetlar talabalari bilan ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etilishi mumkin:

- hayotiy qadriyatlar mavzusidagi muhokama va munozaralar, talaba-yoshlarning inson hayotining maqsadlarini belgilash va ularga erishishning qimmatli ekani, ularning muvofiqligi muhim ekaniga oid tushunchalarini kengaytiradi;

- jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, jumladan ta'lim muassasasida o'quvchilar bilan pedagogik o'zaro ta'sir (hamkorlik) mavzusidagi muhokama va munozaralar;

- "Maktab ta'limi tizmida pedagoglarning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatleri" mavzusidagi davra suhbatlari;

- talaba-yoshlarning psixologik farovonligiga ko'maklashadigan shaxsiy o'sish bo'yicha treninglar.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ НИЗАМИ**

**ТИЛЛАШАЙХОВА ХОСИЯТ АЗАМатовна**

**ДИНАМИКА СТАНОВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ И  
ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ  
СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ  
(на примере педагогического вуза)**

**19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей  
Аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номерам № B2023.3DSc/P130**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета (psi-ik@.uz) и на Информационном образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный консультант:**

**Официальные оппоненты:**

**Бегматов Абдуллажон Сирожиддинович**  
доктор философских наук, профессор

**Шоумаров Гайрат Бахрамович**  
доктор психол. наук, академик

**Файзиева Мавлуда Худаяровна**  
доктор психол. наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:**

**Бухарский государственный  
университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в «\_\_\_» часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета PhD.03/30.12.2021.P.26.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете (адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована под номером \_\_\_\_\_). Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32;

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол реестра № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Ф.А.Акрамова**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.психол.наук (DSc), профессор

**Н.Б.Атабаева**  
Секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.психол.наук (DSc), профессор

**З.Т.Нишанова**  
Председатель семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.психол.наук,  
профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире вопросы профессионального формирования молодёжи в системе социальных отношений, становления их социальной зрелости и психологического благополучия являются актуальными проблемами. Психологическая зрелость связана со зрелостью социальной, которая предполагает равнодушие к судьбе страны, формирование активной гражданской позиции и ответственность в решении своих профессиональных задач. Как подчеркнуто на 41-й Сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО 24 ноября 2021 года, остаются актуальными проблемы, касающиеся грамотности на образовательном пространстве новой информацией, а также социальной зрелости молодого поколения<sup>7</sup>.

В мировых высших образовательных учреждениях и в научно-исследовательских центрах проводится ряд исследований, направленных на изучение условий формирования психологической зрелости, психологического благополучия молодежи, обеспечивающих в дальнейшем возможности вступления их в экономические, духовно-нравственные, социальные, межличностные отношения в обществе, а также профессионального формирования молодёжи в системе социальных отношений, становления их социальной зрелости и психологического благополучия. Социальная зрелость личности – понятие, фиксирующее одно из главных достижений процесса обучения и воспитания, осуществляемых семьей, школой, вузом, социальным окружением, социумом в целом. С этой точки зрения, остаются актуальными проблемы воспитания молодёжи, овладевающей качествами, обеспечивающими профессиональную компетентность, имеющих научный потенциал, активную гражданскую позицию, способные не просто воспроизводить существующие алгоритмы деятельности, принимающие результативные решения.

В Новом Узбекистане актуальным является вопрос формирования психологической зрелости, психологического благополучия молодежи, для которого создана необходимая нормативно-правовая основа: приоритетной задачей является «воспитание самоотверженной и патриотичной молодежи, обладающей высоким моральным духом, твердой жизненной позицией, широким кругозором, повышение правовой культуры...»<sup>8</sup>. Это обусловило научное освещение динамики их формирования и ценностно-возрастного содержания, определения задач и в реализации системы мер в существующем вопросе<sup>9</sup>, необходимостью взаимосвязи, основанной на взаимной солидарности, выявления психологических особенностей формирования эмпатических отношений студенческой молодежи, научного освещения

---

<sup>7</sup> The General Conference of the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), meeting in Paris from 9 to 24 November 2021, at its 41st session. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000380399>.

<sup>8</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан. О мерах по духовно-нравственному и физическому совершенствованию молодежи, поднятию системы ее образования и воспитания на качественно новый уровень. №ПП-3907. 14 августа 2018 года. <https://lex.uz/docs/3864158>.

<sup>9</sup> Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. //Национальная база данных законодательных актов, 09.10.2019., 19.06.5847/3887.

динамики их формирования и ценностно-возрастного содержания, определения задач современных психологических методов в этой области, реализации новой системы психологических мер в данном научном исследовании.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации стратегических задач, мер, намечанных в Конституционном Законе Республики Узбекистан №УП-837 «О Конституции Республики Узбекистан» от 1 мая 2023 года, в указах Президента Республики Узбекистан №УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года, №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, в постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-3907 от 14 августа 2018 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодежи, ее обучения и воспитания» от 18 января 2021 года, в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №23 «Об утверждении Концепции развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года», от 7 июня 2019 года, №472 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в области психологии и профилактики правонарушений в обществе», также в других нормативных правовых актах, связанных с темой исследования.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>10</sup>.**

Научные исследования, направленные на обеспечение психологической устойчивости, благополучия и формирования социальной зрелости в процессе академической и научной активности студентов, проводятся в таких ведущих научно-исследовательских центрах мира, как «Центр исследований» (Великобритания); Британское психологическое общество (Великобритания); Американская психологическая ассоциация (США); «Государственный институт изучения проблем психологии» (Германия); Университет Сорбонны (Франция); Национальный образовательный университет (Корея); Научно-исследовательские институты: Психологический институт Российской

---

